

Date: 23rd April-2025

NAVOIYNING BADIY SAN'ATLARDAN FOYDALANISH MAHORATI

Hamidabonu Hamidova Xamzayevna

Buxoro davlat universiteti talabasi

@hamidabonuhamidova7174gmail.com

Annotatsiya: maqolada Navoiyning badiiy san'atlardan foydalanish mahorati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, ijodkorning shoirlik mahorati aks etgan baytlari tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: qit'a, avlod, mehnat, latif, olam, tarbiyat, tamsil, tanosub, istiora, tashbih.

«Xazoyin ul-maoniy»ning ko'plab sahifalari kichik she'riy asarlar bilan bezalgan. Bular orasida qit'aning alohida o'mi bor. Arabcha «parcha», «bo'lak», «pora» ma'nolarini anglatgan bu so'z istiloh sifatida ikki va undan ortiq baytlardan tashkil topgan, juft misralari o'zaro Qofiyalanuvchi (a-b—v—b—s—b...) she'riy shaklga nisbatan qo'llanadi. Qit'a—boshsiz (matlasiz) g'azal ham deyiladi. Bu janr arab, fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotida keng qo'llanilgan she'riy shakllardan biridir. Alisher Navoiyning sohir qalami qit'aning o'zbek mumtoz she'riyatidagi yetakchi janrlaridan biriga aylanishini ta'minladi. Bu ulug' so'z san'atkoriga qadar Yusuf Amiriyning «Bang va Chog'ir munozarasi»da (ikkita o'zbekcha) Xorazmiy «Muhabbatnoma»sida (bitta) va Mavlono Lutfiy devonida qit'a janriga mansub asarlar mavjudligi kuzatiladi. Navoiy ijodidan «Xazoyin ulmaoniy»da 210 ta qit'a mavjuddir. Yig'ma devonlar «Debocha»sida kelgan qit'alar esa yuqorida ko'rsatilgan raqamga qo'shilmagan. Bulardan tashqari, «Mahbub ul-qulub», «Arbain hadis» va boshqa asarlar tarkibidagi qit'alar ham nazarda tutilsa, ularning soni uch yuzdan ortadi. Chunki «Arbain hadis»ning o'zida Janobi rasuli akramning axloqqa doir qirq hadisi qirq qit'a shaklida o'zbek tiliga o'girilgan va keng kitobxonlar ommasiga taqdim etilgan.

Quyida Navoiyning «Xazoyin ul maoniy» asaridagi qit'alaridan tahlil qilamiz.

Nokas kishi bo'lmaslikda...

Nokas-u nojins avlodin kishi bo'lsun debon,

Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami.

Kim, kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat,

It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami.(«Xazoyin ul maoniy»)

Mazkur qit'a tarbiyaviy ahamiyatga ega. Navoiy yomon, insofsiz, diyonatsiz insonlarga qancha yaxshilik qilsang ham, yaxshilikka hech qachon yaxshilik bilan javob qaytarmaydi, demoqchi. Ulardan shunchaki o'zni uzoq tutmoqlik kerakligi qit'ada nazarda tutiladi. Zero, it-u eshakni tug'ilganidanoq tarbiyalash, xato ishlar qilsa to'g'ri nasihatlar berish bilan ular insonga aylanmaydi yoki tarbiyali bo'lmaydi. Chunki it ham eshak ham hayvon va hayvonligicha qoladi. Qit'ada **tamsil badiiy san'atidan** foydalanilgan. Tamsil bu dalillash san'atidir. Dalillashning Navoiy lirikasi uchun xarakterli ko'rinishi - bu fikr, xulosalarni hayotiy detallar asosida dalillashdan iborat. Miniatur xarakterdagij bu usul g'azalda bayt doirasida qit'a va ruboiyda she'r doirasida amal qiladi. Qit'ada dalillashning funksiyasi juda katta. Chunki bu janrda ijtimoiy-tarbiyaviy mazmun, pand-u nasihat yo'li



Date: 23rd April-2025

yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham, har bir muhim fikr va xulosa xarakterli hayotiy detal bilan asoslanadi, isbotlanadi. Fikr-xulosa bilan uning izohi, dalili o'rtasida muvozanat ham har bir she'rda o'ziga xos.

Qit'ada tamsildan tashqari, tanosub badiiy san'atidan ham unumli foydalanilgan. Tanosub – she'r baytlarida bir-biriga bog'liq va bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llash san'ati. Biror narsani o'ylaganimizda, ko'z o'ngimizda uning belgilari, xususiyatlari keladi. Masalan, quyosh haqida gap ketganda, avvalo, uning nur sochishini xayolga keltiramiz, yuz deganda u bilan bevosita bog'liq ko'z, qosh, lab, og'iz kabilar xayolda jonlanadi. Bir manzarani shular yordamidagina to'laroq tasavvur qilamiz. She'riyatda ham shunday. Shoir biror hodisani tasvirlar ekan, ma'no jihatidan unga yaqin so'zlarni ishlatadi va bu uning yorqinroq, ishonchliroq tasvirlanishiga yordam beradi. Qit'ada quyidagi so'zlar tanosub san'atini hosil qilgan: «nokas, nojins», «it, eshak».

Tahlildan shu narsa ayonlashadiki, keltirilgan so'zlar bir-birining ma'nosini taqozo etadigan so'zlardir.

Kamol kasbiga dalolat-u nuqsonidin izhori malolat

Kamol et kasbkim, olam uyidin —

Sanga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.

Jahondin notamom o'tmak biaynih,

Erur hammomdin nopok chiqmoq.(«Xazoyin ul maoniy»)

Bu qit'ada Navoiy dunyo(«olam uyi»)ga keldingmi, o'zingdan bir yaxshi ish qolsin demoqchi. Zero, dunyodan o'tganimizdan keyin insonlar bizni yaxshi ishlarimiz bilan eslashadi. Agarda yomon inson bo'lib, notavon bo'lib o'tib ketsak, bu cho'milib, toza bo'lish uchun yuvinishga kirganimizda ham baribir toza bo'lmasdan chiqqandek, deb fikrini dalillash orqali tamsil badiiy san'atidan, «olam uyi» deya esa dunyoni nazarda tutib A. Istiora(arab - «oriyatga olish») nozik badiiy san'atlardan biri bo'lib, mumtaz poetikaga doir asarlarda bu san'atning mohiyati haqida bir-biriga yaqin fikrlar mohiyati bayon etiladi. Istiorada so'z yoki iboralar asl ma'nosida emas, balki boshqa ma'nosa ishlatiladi va so'zlarning boshqa ma'nosi tashbih rivoji bog'lanish asosida yuzaga keladi. Zotan, istiora yopiq tashbih asosida yuzaga keladi.

Iqtibos keltirilgan qit'a hazrat Navoiyning eng mashhur qit'alaridan bo'lib, unda insoniyat uchun o'ta muhim bo'lgan ezgu amal ulug'lanadi: «Olam uyi»ga -dunyoga kelganingdan keyin kamolotni «kasb et», komil shaxs bo'l. Bu dunyodan kamolotga erishmay ketmoq, ya'ni «g'amnok chiqmoq» hammomga kirib, poklanmay chiqishday gap. Buyuk shoir komillikka erishmaslikni «farz o'lmag'ay» tarzida ifodalaydi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Navoiy buyuk davlat arbobi, yetuk tasavvuf va buyuk mutafakkirdir. Buning isboti sifatida yuqoridagi qit'alarni mazmun mohiyatini keltirdim. Uning asarlarini o'rganish, ilmimizni oshirish, hozirgi zamon yoshlarining vazifasi bo'lib qoladi.



Date: 23rd April-2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. Toshkent. – 2006. 22,74-bet.
2. <https://tafakkur.net>.
3. «Xazoyin ul maoniy»dan qit'alar.
4. Vohidov R, Eshonqulov.H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. – 2006. 272-bet.

